

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



GEODEMOGRAFIYA
FANINING O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika
va statistika
Ta’lim sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Mutaxassislik: 70530201 - Geografiya

Fan/mavzu kodi GDMGM1106	O'quv yili 2024-2025	Semestr I	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Geodemografiya	60	120	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistrnlarni atroflicha jamiyat ijtimoiy hayotining asosiy sub'yekti bo'lgan aholining jahon, O'zbekiston Respublikasi va xarakterli ayrim mamlakatlar misolida, soni (dinamikasi) va takror barpo qilinish qonuniyatlari, omillari, geodemografik vaziyat, konsepsiyalari, aholining tabiiy va migratsion harakatlari, mehnat resurslari va ulardan foydalanish xususiyatlari, aholining hududiy joylashuvi, aholi manzilgohlarining shakllari va rivojlanishining geografik xususiyatlari haqida o'rganish va ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – magistrnlarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, aholining hududiy xususiyati, demografik jarayonlar, aholining yosh-jins tarkibi, aholining milliy va etnik tarkibi, demografik siyosat va demografik prognozlarni o'rganish, magistrnlarning amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1- mavzu. Geodemografiya fanini mazmuni, maqsadi va vazifalari.</p> <p>Geodemografiya asoslari ma'zmun mohiyati va uning demografiyadan farqli tomoni. Fanning predmeti va vazifalari. Aholi ijtimoiy va tabiiy fanlarning o'rganish ob'ekti sifatida. Demografiyadan demografik jarayonlarning alohida fan sifatida rivojlanishi. Aholi – demografik jarayonlarning ob'ekti sifatida. Demografik tarkib va jarayonlar. Demografiya va boshqa fanlar. Demografiya fanlari tizimida demografik jarayonlar. Amaliyotdagi boshqa fanlar bilan aloqasi. Geodemografiya asoslari siyosiy demografiya, harbiy demografiya, amaliy demografiya, mintaqaviy demografiya, demografik prognoz, iqtisodiy demografiya fanlari bilan uzviylikda amalga oshadi.</p> <p>2-mavzu. Geodemografik va demogeografik tadqiqotlarning metodologik asoslari. Geografiya fanlari tizimida geodemografiyaning ahamiyati. Geodemografiya va demogeografiyaning o'xshashligi va farqlari. Uning tadqiqot usullari.</p> <p>3-mavzu. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari. Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbai. Birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlar. Aholi</p>			

ro'yxati. Aholi ro'yxatida hisobga olinadigan aholi kategoriyalari. Demografik jarayonlarni ro'yxatga olish (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish). Aholi registrlari. Aholi tabiiy harakati bo'yicha joriy hisobga olish. Joriy registrlar (ro'yxat, kartotekalar). Aholini o'rganishda maxsus tadqiqotlar. Tanlama va maxsus tadqiqotlar.

4-mavzu. Aholi soni dinamikasi va undagi o'zgarishlar. Aholi soni, dinamikasi, mutloq ko'payish, o'rtacha yillik ko'payishi, o'sish, ko'payish sur'atlari. Dunyo aholisi soni va undagi geodemografiya asoslari o'zgarishlar. Doimiy aholi soni, mavjud aholi soni, vaqtincha aholi soni mezonlari. Depopulyasiya hodisasi. Doimiy va mutloq aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, aholi soni o'sishi yoki kamayishi bilan bog'liq muammolar.

5-mavzu. Aholi tarkibi va uning o'rganish usullari. Aholining yosh tarkibi bilan bog'liq bo'lgan geografik va demografik tushunchalar. Aholining «yosharib» yoki «qarib borishi» tushunchalar, «yosh akumulatsiyasi» kabilar. Aholining jinsiy tarkibi va xususiyatlari. Uning biologik sotsial, tinchlik, diniy, an'ana, psixologik kabi omillarga bevosita bog'liqligi. Aholi jinsiy ko'rsatkichlarining har xil mamlakatlar va xududlararo tafovutlanishi. Aholi jinsiy tarkibini o'rganish va aniq xisobga olishning ahamiyati. Aholining yosh va jinsiy tarkibi bilan nikoh va oilaning biologik va sotsial tarixiy ob'ektiv bog'liqligi.

6-mavzu. Aholining nikoh va ajralish jarayonlari ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Nikoh ijtimoiy demografik kategoriya sifatida. Nikoh va uning ko'rsatkichlari, hududiy xususiyatlari. Nikohning bekor etilishi – ajralish. Nikoh va ajralish koeffitsiyentlari, unga ta'sir etuvchi omillar.

7-mavzu. Tug'ilish va demografik mayl. Pushtlilik va tabiiy tug'ilish, tug'ilishning tarixiy tiplari, tug'ilish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi, tug'ilishning yig'indi koeffitsienti, akumulatsiya jarayoni.

8-mavzu. Aholi o'limi va hayot davomiyligi ko'rsatkichlari. O'limning demografik mohiyati va uning tiplari, o'lim sabablarining xalqaro tasnifi, aholi o'limini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi, chaqaloqlar o'limi, chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari, o'lim jadvali va uni tuzish tartibi.

9-mavzu. Aholi takror barpo bo'lish qonuniyatlari. Aholining takror barpo bo'lishi va uning turlari. Aholi takror barpo bo'lishining brutto-koeffitsienti. Demografik o'tish va uning bosqichlari.

10-mavzu. Aholi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy tahlili. Migratsiyaga ta'sir etuvchi omillar. Doimiy (umrbod) migratsiya, vaqtinchalik migratsiya, majburiy migratsiya, vaqtinchalik qochoqxonalar olgan shaxslar,

majburiy ko'chuvchi aholi.

11-mavzu. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari. Oilaning turlari. Oilaning iqtisodiy faoliyati.

12-mavzu. Prognoz turlari bo'yicha aholi sonini istiqbolini aniqlash. Demografik prognoz. Demografik prognoz turlari. Global prognozlar. Mintaqaviy prognozlar. Ekonometrik prognoz. Demografik prognoz shakllari. Demografik prognozlashning ahamiyati. Aholi soni va tarkibini prognozlash.

13-mavzu. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini prognoz qilish. Tug'ilish tendentsiyalarini istiqbolli baholash. Kogort. O'lim tendentsiyalarini istiqbolli baholash usullari. Aholining oilaviy tarkibini prognozlash.

14-mavzu. Demografik siyosat va uni o'tkazish usullari. Iqtisodiy uslub, Ma'muriy-huquqiy uslubda, ijtimoiy-psixologik uslubi

15-mavzu. Tug'ilish va o'lim jarayonlarining mintaqaviy siyosati. Tug'ilish va oila sohasidagi demografik siyosat. Qonuniy chora-tadbirlar. Iqtisodiy chora-tadbirlar. Oyma-oy to'lanadigan yoki oilaga belgilanadigan nafaqalar. Farzand tug'ilishi munosabati bilan beriladigan bir martalik nafaqa. Homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'til hamda uni to'lash tartibi. Soliq imtiyozlari. Uy-joy sotib olish uchun kreditlar. Tug'ishning iqtisodiy rag'batlashtirish. O'limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash sohasidagi siyosat.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Geodemografiya asoslari fanini shakllanish tarixi

2-mavzu. Aholini ro'yxati va uni o'tkazish tamoyillari

3-mavzu. Dunyo mamlakatlari aholisi sonini aniqlash va tahlil qilish

4-mavzu. Aholi tarkibini hududiy tahlil qilish

5-mavzu. Mintaqalarda nikoh ko'rsatkichlarini tahlil qilish

6-mavzu. Ajralish ko'rsatkichlarini hududiy xususiyatlarini o'rganish

7-mavzu. Tug'ilish ko'rsatkichlarini mintaqalar doirasida o'rganish

8-mavzu. Aholi o'limi va hayot davomiyligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish

9-mavzu. Aholi salomatligini baholovchi ko'rsatkichlarni o'rganish

10-mavzu. Aholi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlari

11-mavzu. Aholi migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy tahlili

12-mavzu. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari

13-mavzu. Prognoz turlari bo'yicha aholi sonini istiqbolini aniqlash

14-mavzu. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarini prognoz qilish

	<p>15-mavzu. Demografik siyosat o`tkazayotgan mamlakatlar tahlili</p> <p style="text-align: center;">IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p style="text-align: center;"><i>Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'limning mavzulari:</i></p> <p>1-mavzu. Geodemografiya va demogeografiya tadqiqotlari metodologiyasi</p> <p>2-mavzu. Osiyo mamlakatlari aholi soni, irqiy tarkibi, til oilalarga guruhlanishi, Osiyoda mehnat resurslaridan foydalanish</p> <p>3-mavzu. Yevropa aholisining soni va irqiy tarkibi, til oilalarga guruhlanishi, Yevropada mehnat resurslaridan foydalanish</p> <p>4-mavzu. Amerika aholisining soni va irqiy tarkibi, til oilalarga guruhlanishi, Amerikada mehnat resurslaridan foydalanish</p> <p>5-mavzu. Afrika aholisining soni va irqiy tarkibi, til oilalarga guruhlanishi, mehnat resurslaridan foydalanish</p> <p>6-mavzu. Avstraliya va Okeaniya aholisining soni va irqiy tarkibi, til oilalarga guruhlanishi, mehnat resurslaridan foydalanish</p> <p>7-mavzu. Dunyo mamlakatlari migratsiya siyosati urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi</p> <p>8-mavzu. Dunyo aholisining diniy tarkibi, aholi punktlari va tiplari</p> <p>9-mavzu. Dunyoning eng yirik shaharlari, aholining global muammolari</p> <p>10-mavzu. O'zbekistonda aholi sonining tabiiy va mexanik o'sishi, aholisining yosh-jinsiy, milliy tarkibi, urbanizatsiya darajasi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Geodemografiya fani o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • dunyo aholisining er yuzi bo'yicha taqsimlanishini, unga ta'sir etuvchi omillarni va joylashish qonuniyatlarini, demografik ko'rsatkichlarni hisoblash usullarini tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) • aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlarini hisoblash; aholi zichligini hisoblash va uni tahlil qilish; aholi zichligi va tarkibi bo'yicha kartalarni chizish bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) • barcha aholi kartalarini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanib, yangi bilimlar olish, olgan bilimlarini o'quvchilarga tushunarli qilib etkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. • ijodiy ishlar yaratish
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va</p>

	topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Корнев И.Н., Липухин Д.Н. Геодемографические процессы в регионе. Монография. – Екатеринбург, 2002.</p> <p>2. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi. Darslik. Toshkent-2019</p> <p>3. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (1989-2009 yy). Monografiya. T.: 2010.</p> <p>4. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Samarqand. 2018.</p> <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil yanvar, № 11.</p> <p>6. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>7. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.</p> <p>8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.</p> <p>9. Bo‘rieva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. T.: O‘qituvchi, 1997y.</p> <p>10. Nazarova X. Aholi migratsiyasida ayollarning roli. T.: O‘qituvchi, 1999 y.</p> <p>11. Bo‘rieva M.R. Oila va demografiya asoslari (ma’ruza matni) Toshkent.: 2001</p> <p>12. Kadirov M.A. Demografiya asoslari. Monografiya. Samarqand-2017.</p> <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.tdpu.uz 2. www.pedagog.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.lex.uz; 5. www.bilim.uz; 6. www.gov.uz;
7	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va Institut Kengashining 2024 yil 6-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas’ullar: Muxammedova Nazokat Jurayevna – Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dots.v.b., PhD
9	Taqrizchilar: Obloqulov H.A. - Navoiy davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD Safarova N.I. – Toshkent davlat pedagogika instituti Geografiya va uni o‘qitish metodikasi, g.f.n.

Kafedra mudiri:

DSc, dots. S.R.Shodiyev

No _____

